

JASMIN DARZNIKNING “QAFASDAGI QUSH NIDOSI” ROMANIDA EPILOG POETIKASI: METAPROZAVIY USULNING BADIY-FALSAFIY TALQINI

Aminova Nilufar Bahriddinovna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21988530>

Annotatsiya

Mazkur maqolada Jasmin Darznikning "Qafasdagi qush nidosi" romani epilogining metaprozaviy poetikasi tahlil qilinadi. Vafot etgan bosh qahramon Forug' Farrohzodga narrativ ovoz berilishi orqali fakt va badiiy to'qima chegaralarining nisbiylashuvi, muallif epilogni to'rt semantik qatlam — ijod mohiyati, she'riy merosning o'limdan keyingi taqdiri, matbuot yaratgan obrazning qayta izohlanishi va milliy tarix bilan bog'lanish — asosida yoritadi. Tadqiqot epilogni romanning yakuniy qismi emas, balki Sharq ayoli ovozining sukutdan so'zga o'tishini ifodalovchi g'oyaviy-poetik markaz sifatida talqin qiladi.

Kalit so'zlar

Metaproza, postmodernistik poetika, epilog, narrativ subyekt, biofiksiya (biofiction), Forug' Farrohzod, jamoatchilik xotirasi, ovoz va sukut, tarixiy-badiiy sintez, ayol ijodkor obrazi.

Jasmin Darznikning "Qafasdagi qush nidosi" romanida postmodern poetikaning muhim belgilaridan biri bo'lgan voqelik va badiiy to'qima chegaralarining nisbiylashuvi epiloga namoyon bo'ladi. Muallif vafot etgan bosh qahramon Forug' Farrohzodga narrativ ovoz berish orqali fakt va badiiy to'qima qorishuvini ko'rsatib, qahramonning o'z tilidan hikoya qilinishi uning badiiy obraz maqomidan hikoyachi subyekt maqomiga o'tishini ta'minlaydi. Bu holat metaprozaviy usulning namoyon bo'lishi sifatida roman epilogining badiiy-falsafiy mazmunini chuqurlashtiradi.

Roman epilogining metaprozaviy tabiati to'rt asosiy semantik qatlam orqali ochib berilgan. Ularda Forug'ning o'z ijodiga munosabati, she'riyatning o'limdan keyin davomiyligi, shoira obrazining jamoatchilik xotirasida qayta yaratilishi hamda keyingi tarixiy jarayonlarga munosabati markaziy o'rin egallaydi. Epilogda Forug'ning o'z ijodi va shoirlik mohiyati haqidagi mulohazalari asarning metaprozaviy qatlamini shakllantiradi. Roman davomida she'riyat qahramonning ichki kechinmalarini ifodalovchi vosita bo'lsa, epiloga she'riyati tahlil obyektiga aylanadi. Forug' she'r yozishni oddiy ijodiy faoliyat emas, balki o'zlikni anglash va shakllantirish jarayoni sifatida talqin qilinadi.

*"While I was alive, poetry was the answer I gave to my life. I didn't search for anything in my poems. I wrote to discover myself and to become myself. And I believed in being a poet in all moments, because to me being a poet meant being fully human."*¹

She'riyat qahramon uchun bosim, sukut, muhabbat va yo'qotishlarga berilgan badiiy javob vazifasini bajaradi. Ijod orqali u patriarxal muhitda bostirilgan ovozini tiklab, jamiyat belgilagan rollardan tashqarida mustaqil shaxs sifatida o'zligini qaror toptiradi. Demak, epiloga ijod Forug' uchun badiiy mashg'ulotdan ko'ra kengroq o'z mavjudligini anglash va tasdiqlash shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Forug' ijodining taqiqlanishi san'at va hokimiyat o'rtasidagi ziddiyatni epilogning muhim mavzularidan biriga aylantiradi. Forug' she'rlarining keyingi davrlarda qayta yangrashi uning ovozi individual tajriba chegarasidan chiqib, madaniy xotiraning tarkibiy qismiga aylanganini

¹ Darznik J. Song of a Captive Bird. New York: Ballatine Books, 2018. — P. 304.

ko'rsatadi. Vafot etgan qahramonning o'z asarlarining keyingi taqdirini bayon qilishi esa ijodkorning matn orqali o'limdan keyin ham ramziy mavjudligini davom ettiradi.

Epilogdagi suratlar ketma-ketligi Forug'ning shaxsiy xotirasi bilan jamoatchilik tomonidan yaratilgan obraz o'rtasidagi ziddiyatni ochib beradi.

*"The newspapers were full of pictures of me that day, February 15, 1967. Forugh, the Colonel's daughter, sitting on the stone steps of my childhood house with a white satin ribbon wilting at my crown and a blond doll posed on my lap. In the photograph, the Colonel stands over me in full military regalia and black boots half the size of my body. Forugh, the sixteen-year-old bride with arched eyebrows and a lipsticked pout that reads black in the picture. Forugh at nineteen, holding the son who would love, then fear, then despise me. Forugh, the divorcée, at twenty-two, my arms and ankles bare and a rope of pearls knotted between my breasts. Forugh, the notorious twenty-eight-year-old poetess, standing beside Darius Golshiri with bobbed hair and shy but smiling eyes."*²

Gazeta sahifalarida uning hayoti qiz, kelin, ona, ajrashgan ayol va mashhur shoira kabi alohida ijtimoiy maqomlarga ajratilgan holda namoyon bo'ladi. Bu tasvirlar ortida jamiyatning ayolni yaxlit shaxs sifatida emas, balki uning oilaviy va ijtimoiy rollari orqali anglash tendensiyasi ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, otaning harbiy qiyofasi hokimiyat va nazoratni, erta kelinlik surati esa ayol taqdirining an'anaviy me'yorlar asosida belgilanishini ramziy ifodalaydi. Forug'ning ijodiy shaxsiyati ham "notorious poetess" kabi baholovchi ta'rif orqali ijtimoiy stereotip doirasiga joylashtiriladi. Biroq epilogda bu tasvirlarni Forug'ning o'zi sharhlashi matbuot nigohi bilan shaxsiy o'zlik o'rtasidagi munosabatni tubdan o'zgartiradi. Ilgari kuzatilgan, tasvirlangan va baholangan ayol endi o'z hayotini sharhlovchi faol subyektga aylanadi.

Roman epilogida Forug'ning shaxsiy taqdiri Eronning keyingi tarixiy qismati bilan birlashtirilib, qahramon obraziga yangi mazmun yuklanadi. Inqilob, urush va ommaviy muhojirlik haqidagi mulohazalar uning ovozi individual ayol tajribasi chegarasidan chiqarib, xalqning umumiy yo'qotishlari bilan bog'laydi. Ayniqsa, keyingi avlodlarning Forug' she'rilarida mamlakat boshidan kechirgan kaos, zo'ravonlik va sukutning badiiy aksini ko'rishi uning ijodi yangi tarixiy kontekstlarda qayta ma'nolanishini ko'rsatadi. Vafot etgan Forug'ning o'zidan keyingi voqealarni sharhlashi esa qahramon ovozi biologik umr va real vaqt chegaralaridan tashqariga olib chiqadi. Bu metaprozaviy yechim orqali Darznik individual biografiyani milliy tarix bilan bog'lab, qahramonning ramziy mavjudligini davom ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, Jasmin Darznik "Qafasdagi qush nidosi" romani epilogida metaprozaviy usul vositasida Forug' Farrohzod obrazining badiiy mohiyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Vafot etgan qahramonning "men" hikoyachi sifatida o'z dafn marosimi, ijodi va keyingi tarixiy jarayonlarni bayon qilishi realistik mantiqni buzib, postmodernistik badiiy shartlilikni shakllantiradi. Bu usul orqali Forug' boshqalar tomonidan hikoya qilinadigan biografik obrazdan o'z hayoti, ijodi va xotirasini mustaqil sharhlovchi narrativ subyektga aylanadi. Ijod mohiyatining anglashi, she'riy merosga taqiq, matbuot shakllantirgan obrazning qayta izohlanishi hamda milliy tarixning qahramon tomonidan sharhlanishi yagona g'oyaviy tizimni hosil qiladi. Forug'ning ovozi individual ayol tajribasi chegarasidan chiqib, tarixiy, milliy

² Darznik J. Song of a Captive Bird. New York: Ballatine Books, 2018. – P. 303.

va badiiy xotiraning barqaror qismiga aylanadi. Epilogni romanning shunchaki yakuniy qismi emas, balki Sharq ayoli ovozining sukutdan soʻzga, cheklovdan erkinlikka va oʻlimdan badiiy abadiylikka oʻtishini umumlashtiruvchi gʻoyaviy-poetik markaz sifatida baholash mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Darznik, J. Song of a Captive Bird: A Novel. — New York: Ballantine Books, 2018. — 336 p.
2. Darznik, J. The Good Daughter: A Memoir of My Mother's Hidden Life. — New York: Grand Central Publishing, 2011. — 304 p.
3. Hillmann, M.C. A Lonely Woman: Forugh Farrokhzad and Her Poetry. — Washington: Mage Publishers, 1987. — 210 p.
4. Hillmann, M.C. An Autobiographical Voice: Forugh Farrokhzad // Women's Autobiographies in Contemporary Iran / ed. A. Najmabadi. — Cambridge: Harvard University Press, 1990. — P. 33-55.
5. Milani, F. Veils and Words: The Emerging Voices of Iranian Women Writers. — Syracuse: Syracuse University Press, 1992. — 314 p.
6. Milani, F. Forugh Farrokhzad // Persian Literature: Columbia Lectures on Iranian Studies / ed. E. Yarshater. — Albany: State University of New York Press, 1988. — P. 367-380.
7. Milani, F. Forugh Farrokhzad: A Literary Biography with Unpublished Letters. — Los Angeles: Sara Book, 2021.
8. Mannani, M. The Reader's Experience and Forough Farrokhzad's Poetry // Crossing Boundaries: An Interdisciplinary Journal. — 2001. — Vol. 1. — P. 49-65.